



**BOLALARDA SO‘RG‘ICH SO‘RISH ODATINING TISH
QATORLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA
TA’SIRI**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Batirova Shaxlo Muxammad qizi

Ilmiy rahbar: Yuz jag‘ jarrohligi
va Stomatologiya kafedrası assistenti

Ro‘ziqulova Munira Shuhratovna

<mailto:batirovashaxlo11@gmail.com>

[Tel:+998884256630](tel:+998884256630)

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh bolalarda so‘rg‘ich so‘rish odatining tish qatorlari hamda jag‘- yuz sohasining morfo-funksional rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur tahlil qilingan. Mahalliy (Toshkent, Samarqand, Buxoro) va xorijiy (AQSh, Germaniya, Yaponiya) ilmiy tadqiqotlar asosida so‘rg‘ichdan foydalanish davomiyligi bilan maloklüziya shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan va ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari bolalarda noto‘g‘ri ortodontik odatlarning erta aniqlanishi, ularni bartaraf etish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, bolalar stomatologiyasi amaliyotida qo‘llash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: so‘rg‘ich, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, profilaktika, sefalometrik tahlil, klinik ko‘rik.

Аннотация: В данной статье подробно проанализировано влияние привычки сосания пустышки у детей раннего возраста на формирование зубных рядов и морфофункциональное развитие челюстно-лицевой области. На основе отечественных (Ташкент, Самарканд, Бухара) и зарубежных (США, Германия, Япония) исследований изучена взаимосвязь между продолжительностью использования пустышки и развитием малокклюзий. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для



раннего выявления неправильных ортодонтических привычек, разработки профилактических мер и применения их в практике детской стоматологии.

Ключевые слова: пустышка, малокклюзия, ортодонтия, детская стоматология, профилактика, цефалометрический анализ, клинический осмотр.

Annotation: This article provides a detailed analysis of the impact of pacifier-sucking habits in young children on the development of dental arches and the morpho-functional growth of the maxillofacial region. Based on both local (Tashkent, Samarkand, Bukhara) and international (USA, Germany, Japan) studies, the correlation between the duration of pacifier use and the development of malocclusion has been investigated. The findings hold significant scientific and practical value for the early detection of improper orthodontic habits, the development of preventive measures, and their application in pediatric dentistry practice.

Keywords: pacifier, malocclusion, orthodontics, pediatric dentistry, prevention, cephalometric analysis, clinical examination.

Kirish

Yosh bolalar orasida so'rg'ich so'rish odati juda keng tarqalgan bo'lib, bu odat ko'p hollarda psixologik tinchlantirish va uyqu gigiyenasini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha **0–3 yosh** oralig'idagi bolalarning **65–70** foizi kamida bir marta so'rg'ichdan foydalanadi, ulardan **30** foizida bu odat uch yoshdan keyin ham davom etadi [1]. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Stomatologiya ilmiy markazining **2022**-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent



shahridagi 2–6 yoshli bolalar orasida o‘tkazilgan epidemiologik kuzatuvda maloklüziya ko‘rsatkichi 21 foizni tashkil etgan, shundan 8 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rg‘ich so‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Dolzarblik shundan iboratki, ortodontik kasalliklarning katta qismi erta yoshda boshlanadi va o‘z vaqtida profilaktika qilinmasa, keyinchalik murakkab va qimmat davolash choralarini talab etadi [2]. Shu sababli so‘rg‘ich so‘rish odatining tish qatorlariga ta‘sirini o‘rganish va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish zamonaviy pediatriya va stomatologiyaning dolzarb masalalaridan biridir [4]. So‘rg‘ich so‘rish odati pediatriya va stomatologiyada eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri bo‘lib, uning ortodontik oqibatlarini yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarning aksariyati ushbu odatning davomiyligi va chastotasi bevosita maloklüziya rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. AQSh va Yevropa mamlakatlarida olib borilgan klinik kuzatuvlarda aniqlanishicha, so‘rg‘ichni uch yoshdan keyin muntazam ishlatish yuqori jag‘ning torayishi, ochiq tishli oklüziya (open bite) va oldingi tishlarning protruziyasi bilan bog‘liq bo‘lgan [6]. Germaniyada o‘tkazilgan sefalometrik tadqiqotlar natijasida esa so‘rg‘ich so‘rish odati bolalarda alveolyar yoylarning morfologik shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etilgan [7].

Yaponiyada olib borilgan boshqa bir tadqiqotda so‘rg‘ichdan foydalanish erta tugatilgan bolalarda maloklüziya rivojlanish ko‘rsatkichi sezilarli darajada past bo‘lgani ta‘kidlangan. Shu bilan birga, psixologik jihatdan tinchlantirish maqsadida qisqa muddatli foydalanish ortodontik muammolarga olib kelmasligi ham alohida qayd etilgan. Mahalliy tadqiqotlarga e‘tibor qaratiladigan bo‘lsa, O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida 2–6 yoshli bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan epidemiologik kuzatuvlar natijasida maloklüziya ko‘rsatkichi o‘rtacha 18–22% ni tashkil qilgan. Shundan 7–9% hollarda bu nuqsonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rg‘ich so‘rish odati bilan bog‘liqligi aniqlangan. Ko‘plab mualliflar ta‘kidlashicha, so‘rg‘ich so‘rish odatining davomiyligi ikki yildan oshganda



ortodontik xatarlar sezilarli darajada ortadi. Shuningdek, bu odatning chastotasi ham muhim rol o'ynaydi – kundalik foydalanish so'rg'ichdan vaqti-vaqti bilan foydalanishga nisbatan ko'proq patologik o'zgarishlarga olib keladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'rg'ich so'rish odati qisqa muddatli bo'lsa nisbatan xavfsiz sanaladi, biroq uzoq davom etgan holatlarda tish qatorlari va jag'-yuz sohasi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Shuning uchun ushbu odatning davomiyligi, chastotasi va bola yoshini hisobga olgan holda, pediatr va stomatologlar tomonidan individual profilaktik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Tadqiqot maqsadi. So'rg'ichdan foydalanishning davomiyligi va chastotasining bolalarda tish qatorlari hamda jag'-yuz sohasi rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini ilmiy asosda baholash, mavjud tajribalar natijalarini tahlil qilish va ortodontik profilaktika bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari

-Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni tahlil qilish, so'rg'ich so'rish odatining klinik oqibatlari bo'yicha mavjud tajribalarni umumlashtirish.

-So'rg'ichdan foydalanish davomiyligi va malokluziya rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

-Klinik kuzatuvlar, statistik ma'lumotlar hamda sefalometrik tahlillar asosida ilmiy xulosalar chiqarish.

-Ortodontik kasalliklarning oldini olish uchun samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berish.

Ilmiy qism.1.Tadqiqotni olib borganlar:

– Ortodontiya kafedrası professori **X. Yo'ldoshev** rahbarligida

– Pediatriya va profilaktik stomatologiya kafedrası assistentlari hamkorligida

Tajriba usuli: 500 nafar 2–6 yoshli bolalar tanlab olingan. Bolalar ikki guruhga bo'lingan:



1-guruh: So‘rg‘ichdan 2 yoshgacha foydalanganlar.

2-guruh: So‘rg‘ichdan 3 yoshdan oshib foydalanganlar.

Klinik tekshiruvlar ortodontik datchiklar, tish qatori modellari va rentgen tasvirlar yordamida olib borilgan.

Natijalar: 1-guruh bolalarida maloklüziya **7%** da qayd etilgan.

2-guruhda esa bu ko‘rsatkich **28%** ga yetgan

So‘rg‘ichni 3 yoshdan keyin ishlatish tishlararo ochiq okklüziya (18%) va yuqori jag‘ning oldinga siljishi (12%) holatlarini oshirgan.

2. Samarqand davlat tibbiyot universiteti (**SDTI**) tadqiqoti (2021)

Tadqiqotni olib borganlar:

– Bolalar stomatologiyasi kafedrasida dotsenti **Sh. Abdullayev** va guruhi.

Tajriba usuli:

300 nafar bola (2–5 yosh) kuzatuvga olingan.

Dinamik kuzatuv 12 oy davom etgan.

Har chorakda tish qatori o‘lchovlari, jag‘ shakli, chaynash samaradorligi va nutq talaffuzi baholangan.

Natijalar:

So‘rg‘ichni kech tark etgan bolalarda chaynash kuchi 20% ga kamaygan.

Tovush talaffuzidagi kamchiliklar (s, z, sh tovushlari) 15% bolada kuzatilgan.

So‘rg‘ichdan 2 yoshgacha foydalangan bolalar tish qatori rivojlanishida sezilarli muammo kuzatilmagan.

3. Xalqaro tadqiqotlar a) Amerika Pediatriya Akademiyasi (**AAP**) va Amerika Ortodontlar Assotsiatsiyasi (**AAO**), 2018–2021

1000 nafar bola 3 yil davomida kuzatildi.

So‘rg‘ichdan 3 yoshdan keyin foydalanishda maloklüziya xavfi **35–40%** gacha oshgani aniqlandi.

b) **JSST** ko‘lamida **12** davlatni qamrab olgan monitoring (2020)



O'rganilgan mamlakatlar: Germaniya, Braziliya, Turkiya, Hindiston, Xitoy va boshqalar.

Maloklüziya xavfi 4–7 barobar oshishi qayd etilgan.

Tajriba metodologiyasida qo'llangan usullar. Klinik ko'rik (vizual va palpatsion tekshiruv). Ortodontik o'lchovlar (bo'ylama va ko'ndalang diametrlarni baholash). Rentgenologik tahlil (panoramik rentgen, sefalometriya). Nutq va chaynash funksiyasini baholash testlari. Sotsiologik so'rovlar (otonalardan so'rg'ichdan foydalanish odatlari haqida ma'lumot yig'ish)

Amaliy qism. Kuzatuv natijalari statistik tahlil qilinib, uchta asosiy yosh guruhi ajratildi:

1-guruh: 0–24 oy (fiziologik davr)

2-guruh: 25–36 oy (kechiktirilgan odat)

3-guruh: 37 oy va undan yuqori (patologik davr)

1-jadval. Guruhlar bo'yicha ortodontik deformatsiyalar taqsimoti (% hisobida)

Deformatsiya turi	1-guruh	2-guruh	3-guruh
Ochiq okkluziya	5%	18%	32%
Yuqori jag' prognatiyasi	3%	15%	24%
Tish qatori torayishi	2%	10%	21%

Jadval taxlili. Jadval ko'rsatkichlari shuni anglatadiki, so'rg'ichni uzoq muddat (3 yoshdan keyin) ishlatish ochiq okklüziya rivojlanish xavfini 6 barobar, yuqori jag' prognatiyasini 8 barobar oshiradi.

– Ochiq okklüziya uchrash chastotasi

1-guruh: 5 % – fiziologik davrda minimal ko'rsatkich.

2-guruh: 18 % – sezilarli oshish, lekin davolashga moslashuvchan.



3-guruh: 32 % – yuqori xavfli, ko‘p hollarda ortodontik davolash talab etiladi.

Agar bu ma’lumotlarni ustunli diagramma ko‘rinishida chizilsa, 3-guruhning ustuni 1-guruhga qaraganda qariyb 6 barobar baland bo‘ladi.

Klinik kuzatuvlar. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy klinik belgilar kuzatildi:

1. Oldingi tishlar orasida bo‘shliq (diastema, tremalar) – **27 %**

Tishlar orasidagi masofaning kengayishi chaynash samaradorligini pasaytiradi.

2. Chaynash funksiyasining buzilishi – **18 %**

Ko‘proq qattiq ovqatlarni chaynashda noqulaylik kuzatildi.

3. Nutq apparati rivojlanishida kechikish (sovush, sigmatizm) – **12 %**

Ayniqsa, "s", "z", "sh" tovushlarini talaffuz qilishda qiyinchilik bo‘lgan.

4. Lab yopilishida qiyinchilik – **10 %**

Yuqori jag‘ning oldinga chiqib ketishi tufayli lablar orasida bo‘shliq hosil bo‘ladi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Profilaktik chora-tadbirlar

So‘rg‘ichdan foydalanish **24** oydan oshmasligi kerak.

2–3 yoshda ortodontik skrining tekshiruvini joriy qilish.

Ota-onalar uchun gigiyena va bolalar stomatologiyasi bo‘yicha ma’rifiy dasturlarni yo‘lga qo‘yish.

2. Ortodontik yordam

3 yoshdan keyingi deformatsiyalarni bartaraf etish uchun funksional apparatlar (trainerlar, vestibulyar plastinkalar) tavsiya etiladi.

Mushak-tonik mashqlar yordamida jag‘ va lab mushaklari faolligini normallashtirish.

3. Jamiyat salomatligi darajasida



Maktabgacha ta'lim muassasalarida so'rg'ichdan foydalanish xavflari haqida gigiyenik burchaklar tashkil etish.

Davlat miqyosida "Sog'lom tishlar – sog'lom avlod" dasturiga so'rg'ich odatini nazorat qilish bo'yicha alohida modul kiritish.

Umumiy tahlil. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'rg'ichdan 3 yoshdan keyin foydalanish yuqori xavfli ortodontik omil hisoblanadi. Bu nafaqat tish qatori deformatsiyalariga, balki chaynash, nutq va yuz proporsiyalarining buzilishiga ham olib keladi. Vaqtida profilaktika olib borilsa, ushbu muammolarni **70–80 %** hollarda oldini olish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'rg'ich so'rish odati 2 yoshgacha fiziologik holat sanalsa-da, 3 yoshdan oshgach uni davom ettirish yuqori xavfli ortodontik omilga aylanadi. Uzoq muddatli so'rg'ich ishlatish natijasida tish qatorlarida ochiq okklüziya, yuqori jag' prognatiyasi, tish qatori torayishi va yuz-proporsional o'zgarishlar yuzaga kelishi kuzatildi. Statistik tahlillar bu holatlarning tarqalish chastotasi odat davomiyligiga mutanosib ravishda ortishini tasdiqladi.

Shuningdek, so'rg'ichni uzoq muddat so'rish chaynash samaradorligini pasaytirishi, nutq apparati rivojlanishini kechiktirishi va lab yopilishining qiyinlashishiga olib kelishi isbotlandi. Bu esa bola salomatligi, psixologik rivoji va ijtimoiy moslashuvchanligiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Eng muhim natija shundaki, so'rg'ichdan foydalanishni **24** oydan kechiktirmasdan to'xtatish orqali **70–80%** hollarda ortodontik deformatsiyalarni oldini olish mumkin. Shuningdek, ota-onalar va pediatrlar o'rtasida ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida profilaktik dasturlarni joriy etish, **3** yoshdan keyin esa **ortodontik skriningni** yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi SSV ma'lumotlari, 2023.



2. Тошкент давлат стоматология институти. Bolalar stomatologiyasi bo'yicha qo'llanma. 2023.
3. Karimova G.Sh. Bolalar stomatologiyasida gigiyena va profilaktika (o'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDTU nashriyoti, 2020. – 198 b.
4. Abdullayev M.A., Qodirov Sh.B. Bolalar stomatologiyasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. – 256 b.
5. World Health Organization. Oral health in children. Geneva, 2023.
6. WHO. Oral Health and Pacifier Use. Geneva, 2020.
7. AAP. Pacifier Use and Malocclusion: Longitudinal Study. Washington, 2021.
8. AAO. Early Childhood Habits and Orthodontic Development. New York, 2022.